

QO'QON XONLIGI MADANIY HAYOTI.

Baxriyev Qahramon Qudratillo o'g'li.

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 63-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo'qon xonligi madaniy hayoti, Qo'qon xonligida rivojlangan hunaandchilik markazlari, Qo'qon xonligi lirik shoirlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, madaniyat, shoir, davlat arbobi, hattotlar, memorial.

Kirish: Qo'qon xonligi - o'zbek xonliklaridan biri (18–19-asrlar). Poytaxti – Qo'qon. O'zbeklarning minglar urug'idan bo'lgan Shohruxbiy 1709-yilda asos solgan. Bu davlat tarkibiga dastlab Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atrofidagi qishloqlar kirgan. Abdurahimbiy davrida Buxoro xonligiga harbiy yurish qilinib Samarcand egallanadi (1732). Abdulkarimbiy davrida 1746-yil qalmoqlar Farg'ona vodiysiga hujum qilib, O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlarini egallab, Qo'qonni qamal qilgan. Qo'qonliklar yordamga kelgan O'ratega hokimi Fozilbiy qo'shinlari bilan birmuncha ularni Farg'ona vodiysidan quvib chiqarishgan. Norbo'tabiy davrida Chust va Namangan beklarining mustaqillik uchun ko'targan g'alayonlari bostirilgan. Mamlakatda sug'orish inshootlari barpo qilinadi, savdo va hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi birmuncha rivoj topadi va nisbatan arzonchilik bo'ladi. Qo'qon xonligining savdo va hunarmandchilik markazlaridan bo'lgan Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Urganch, Baliqchi shaharları o'z davrida madaniyati markazlari ham edilar. Masalan, Qo'qon 40 ta madrasa, 120 ta muktab, Marg'ilonda 10 ta madrasa, 80 ta muktab bo'lgan. Xassos shoir va davlat arbobi amir Umarxon (1810–1822), uning umr yo'ldoshi, mashhur shoir Nodirabegimlarning o'zlari ijodkor bo'lganliklari tufayli, Qo'qon adabiy muhiti vujudga kelgan. Ularning sayi-harakatlari tufayli saroyga iste'dodli shoirlar, adabiyotshunoslar, tarixchilar to'plangan edilar. Amiriy Bokixon to'ra, Gulxaniy, YOriy, Zavqiy, Zoriy, Maxjub, Maximur, Mushrif, Nizomiy, Nodir, Nozil, oziylar shu adabiy muhitning gultojilari bo'lmish Dilshod, Nodira, Uvaysiyolar o'z davrida samarali ijod qilganlar. Fazliy Namangoniyning «Majmuat ush-shuar», Qori Raxmatullo Vozexning «Tuxmat ul-axbob fi tazkiran ul-ashob» tazkiralarida 200 nafarga yaqin shoir va olim ijodiga to'xtab o'tiladi. Ana shu adabiy jamoani amir Umarxonning o'zi boshqargan. U barcha shoir, adib, musavvir, hattot va musiqa bilimdonlariga homiylik qilgan. Uning xukumronligi davrida ko'plab masjid, madrasa, muktablardagi kitoblar iste'dodli davrida ko'plab masjid, madrasa, muktablardagi kitoblar iste'dodli hattotlar tomonidan ko'chirilgan. Amiriyning o'zbek va fors tillarida yozgan g'azallar devoni 1881 yilda Istanbulda, 1905 yilda Toshkentda chop etildi. Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri Maximur 18 asr oxirida tug'ilib 1844 yili vafot etgan. Uning she'riy devoni mavjud. Qo'qondagi Madrasai Mirda o'qigan: keyin Amir Umarxon qo'shinida sipoxiylik qilgan. SHe'rlarida halqqa jabr qilgan amaldorlarni hajv etadi. «Xapalak» «Ta'rifi viloyati Kurama» she'rlarida mamlakatning vayrona manarasini, aholining ayanchli ahvoli tasvirlangan. Bu davr adabiyotning yana bir yirik namoyondalaridan biri Gulxaniy (Muhammad SHarif) bo'lgan. U 1770 yilda hozirgi Tojikistonning Tavildara tumanida tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limni qishlog'ida olgan. Muhtojlik oqibatida Namanganga kelib qolgan. U yerda mardikorlik qilgan. Ayni paytda ijod bilan ham shug'ullangan. Keyinchalik u Qo'qonda istiqomat qiladi. Bu yerda hammomda gulxat (o't yoquvchi) bo'lib ishlaydi. U «Gulxaniy» tahallusi bilan ijod qilgan. Gulxaniydan katta adabiy meros qolgan. U o'zbek tili adabiyotida poeziyaga masalani mustaqil janr sifatida birinchi bo'lib kiritgan ijodkor edi. Ayni paytda u ham o'zbek tilida ham tojik tilida ijod qilgan. Gulxaniy o'zining satira va xajviy she'rida zamonasining illayolarni, hukmron tabaqalarning mehnatkash halqqa o'tkazgan

zulmini, halqning og'ir turmush sharoitini katta mahorat bilan bayon eta olgan. Gulxaniyning mashhur asari «Zarbulmasal» edi. Asardagi «Maymn va Najjor», «Tuya bilan Bo'taloq», «Toshbaqa bilan CHayon» kabi masallari chuqur ahloqiy ta'limiylah amaliyatga ega. Asarlarida YApaloqqush, Boyo'g'li, Ko'rquish, Xudxud, Kalonqir sulton, Malik shohi va Kardonlarning bir-birlari bilan quda-anda bo'lish jarayonida bir-birlariga aytgan so'zları, masal-maqollari va hikoyatlari Gulxaniy yashagan davrdagi siyosiy tuzumining haqiqiy manzaralarini ifodalab beradi. Qo'qon adabiy muhitini Jahon otin Uvaysiy (1780-1841) va Moxlaroyim Nodiralar ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uvaysiy 1780 yilda Marg'ilonda tug'ilgan oilasi o'z davrining ilg'or va ma'rifatli oilalari edi. Otasi ham o'zbek, ham tojik tilida qalam tebratgan. Oilasidagi muhit Uvaysiyda ijod qobilyatini yuzaga chiqaradi. Uvaysiy Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Xofiz va Jomiy ijodlarini qunt bilan o'rganadi. O'zbek shoirlardan ma'rifatparvar davlat arbobi moxlaroyim Nodira (1792-1842) Andijonda tug'ilgan. Otasi Raxmonqulibiy Andijon hokimi bo'lib, Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi edi. Umarxon Marg'ilonga hokim etib tayinlagandan keyin Nodiraga uylangan. Nodira shu xonadonda she'rlar mashq qiladi. SHoira Uvaysiy bilan tanishgach, uni yosh bolalar va kazinaklarni o'qtish uchun muallimlikka taklif qiladi. Nodira xonlikka qarashli shaharlarda fozillar, olimlar, hattotlar va naqqoshchlarni Qo'g'onga to'plagan. Nodira ko'p kitoblarni qayta ko'chirgan. Kitob muqovasini did bilan ishlanishiga e'tibor bergan. Yaxshi hattotlarga, naqqoshlarga tilla qalam, kumush qalamdan sovg'a qilgan. Nodiraning o'zi am o'zbek, ham tojik tillarda ijod qilgan. Uning she'riyati asosini lirika tashkil etadi. SHe'rida muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda sharq xotinqizlarining dard-alamlari, ox-fiq'onlari kuyylanadi. Bundan tashqari Nodira Navoiy, Fuzuliy va Bedil g'azallariga muhammaslar yozgan. Qo'qon xonligida ijod qilgan ulug' insonlardan biri iste'dotli va isyonkor shoir Boboraxim Mashrab edi. (1640-1711) u Namanganda tug'ilgan, 7 yoshligida xat-savodi chiqqan. 15 yoshidan boshlab tasavvuf ilmini egallay boshlagan. 18 yil mobaynida dunyoning juda ko'p mamlakatlarini kezib chiqqan. U ruxoniylarning eshonlarning avom halq ruhini do'zax va ohirat azoblari bilan daxshatga solayotganligini, aslida, bu dunyoning azob-uqubatlari do'zoh azobu-uqubatlaridan kam emasligini ularga qarata baralla ayta olgan jasoratli inson ham edi. Ana shu jasorati uchun Mashrab dinga shak keltirganlikda ayblanadi va 1711 yili g'animlari ig'vosi bilan Balx hokimi Maxmudbiy qatag'on tomonidan o'limga hukm etiladi. XVIII-XIX asr birinchi yarmi XVIII-XIX asrlarda Qo'qon xonligida ko'plab tarixiy asarlar yaratilgan. Mazkur davr tarixchilaridan Abdukarim Foziliy Namongoniy amir Umarxonning topshirig'iga binoan «Shohnoma» masnaviysini yozib tugatgan. U 5000 bayonatdan iborat tarixiy manzuma. YAna «Majmuai shoiron» tazqirasida ham uning ijtimoiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Xon saroyida qoziaskar lavozimida ishlagan Mirzo Qalandar Mushrif bilan «Shohnomai Umarxon» tarixiy asarini yozgan. Avaz Muhammad Atton Qo'qondiy 1822 yili «Tarixi Jahonnumai» asarini yozgan. Amir Umarxon davrning ko'zga ko'ringan tarixchisi Muhammad Xakimxon to'ra ibn Sayid Ma'sumxon (1802-1870) dir. U ona tomonidan Qo'qon xoni Norbutabekning nabirasi Muhammad Alixon davrida quvg'inga uchrab, Rossiyaga SHarq mamlakatlariga sayohat qilishga majbur bo'lgan. Umrining oxirida Shahrisabzda yashab, shu yerda o'zining «Muxtashab uttavorix» asarini yozdi. Bu asar Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi tarixiga oid muhim manbalardandir. Unda O'rta Osiyo halqlarining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotga doir qimmatli ma'lumotlar mavjud. Amir Umarxon davrining yana bir yetuk tarixshunosi mulla Niyoz Muhammad ibn mulla Ashur Muhammad Xo'qandiydir. Harbiy lavozimlarda ishlagan va XIX asrning 70 yillarda «Tarixiy SHohruxiy» asarini yozadi. Asarda olim davrining siyosiy ahvoli va halqning ijtimoiy turmushiga to'g'ri baho bera olgan. Unda 1872 yilgacha bo'lgan ko'pincha o'z ko'zi bilan ko'rgan va bo'lgan voqealarni bayon etadi. Amir Umarxon davrida 1872 yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarning bayonidan iborat bo'lgan yana bir tarixiy asar «Tarixiy Jahonnamoyi» deb nomlanadi. Uning muallifi Avaz Muhammad mullo Ro'ziMuhammad o'g'li Avaz Muhammad Attor Xo'qandiydir. Yana bir tarixchi mulla Ali Qori Qunduziy (1786-1858) «Tavvorixi manzuma»

asarini yozgan. Asarda 1822-1848 yillar tarixi bayon etilgan. Ma'rifatparvar shoir va tarixchi olima Dilshod Barno «Tarixi muxassara» (Kamal tarixi), «Sabot ul-basharmaa tarixi muxojiron» (Inson matonati va muxojirlar tarixi) kabi asarlar yozib qoldirgan.

Xulosa:

Qo'qonda hattotlik san'ati va me'morchilik ham rivojlangan. Muhammad Latif, Mirzo Sharif dabir, Abdulg'ozixoja kabi hattotlarning kitob ko'chirishi borasida o'zлari amalga oshirgan hayrli ishlari bilan tarixda nomlari qoldi. Kitoblar shunday did bilan ko'chirilganki, harbiy mamlakatlar shahri uchun elchilarga ana shunday nafis ko'chirilgan kitoblarni tortiq qilish xonlikda odatga aylangan edi. Amir Umarxon Turkiston va uning atroflarini oroldan yettisuvgacha egallab, Oqmasjid (Qizil O'rda) Avliyo ota (Janbul), Pishpak (Bishkak) qal'alarini buniyod etdi. Uning davrida Qo'qonda va boshqa nohiyalarda ko'plab binoyi hayrlar qilingan. Norbutabiy madrasasi (1799), Muhammad alixon madrasasi, Madrasayi Kalon qozi (1820), madrasai Tunqator, Madrasai Moxlaroyim, Madrasai Haqquli Mingboshi (1825), Madrasai Miyon Xazrat, Madrasai Moxlaroyim, madrasai Xakim To'ra (1795), Madrasai Xonxoja eshon (1789), Madrasai Buzruqxo'ja (1801), Madrasai Pirmuhammad Yasovul (1802), Madrasai Xojabek (1805), Madrasai Oxund devonbegi Jome' (1817), Madrasai Norbutabiy (1827) shular jumlasidandir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. X.Bobobekov. O'zbekiston tarixi (Qisqacha ma'lumotnoma). T.: Sharq 2000.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq 1998.
3. Muhammad Yunus Toib Tarixi Aliquli Amirlashkar. 1996 yil № 1-2
4. Isxoqxon Ibrat. Farg'ona tarixi. T.: Meros. 1991
5. Muhammad Yusuf Bayoni. Shajarai Xorazmshohiy. T., Meros 1991.